



Onomasiological study of diplomacy terminology in different systemic languages

Akmal MUSAYEV¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

terminology,
syntactic analysis,
structural-semantic aspect,
metaphor and metonymy

ABSTRACT

Currently, several aspects are distinguished in the field of terminology, with the onomasiological aspect holding a special place. The most effective methods for studying English and Uzbek terminology related to diplomacy involve organizing the terminology of the field through semantic, morphological, and syntactic analysis, including term modeling. The formation of diplomatic terms from a structural-semantic perspective includes terms that arise through meaning transfer methods, such as metaphor and metonymy. For example, terms like "issuing passports" or "confirming authority" are formed using these techniques.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp244-250>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Turli tizimli tillarida diplomatiya sohasiga oid terminologiyani onomasiologik o'rganish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

terminshunoslik,
sintaktik tahlillar,
struktur-semantik jihati,
metafora va metonimiya.

Terminshunoslik sohasida hozirgi vaqtda bir qator jihatlar ajralib turadi, onomasiologik jihat terminologiyada ular orasida alohida o'rin tutadi. Ingliz va o'zbek tillari diplomatiya sohasiga oid terminologiyani o'rganishning eng samarali usullari terminlarni modellashtirish shu jumladan, semantik, morfologik va sintaktik tahlillar orqali soha terminologiyasini tartibga solish imkonini beradi. Diplomatiyaga oid terminlarning struktur-semantik jihatiga ko'ra termin sifatida shakllanishi, uning

¹ Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages. E-mail: Musayev-1988@gmail.com

tarkibiy qismi bo'lmish metafora va metonimiya kabi ma'no ko'chish usullari asosida paydo bo'lgan atamalarni o'z ichiga oladi, masalan, pasportlarini berish, yoki tasdiqlash vakolatiga ega

Ономасиологическое изучение терминологии дипломатии в разных системных языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

терминология,
синтаксический анализ,
структурно-
семантический аспект,
метафора и метонимия.

В состав дипломатического термина как термина по структурно-семантическому аспекту входят термины, возникающие на основе входящих в его состав способов передачи значения, таких как метафора и метонимия, например, выдача паспортов или подтверждение власти. В настоящее время в области терминологии выделяют ряд аспектов, среди которых особое место в терминологии занимает ономасиологический аспект. Наиболее эффективные методы изучения английской и узбекской терминологии, связанной со сферой дипломатии, позволяют систематизировать терминологию данной сферы посредством семантического, морфологического и синтаксического анализа, включая терминологическое моделирование.

Terminshunoslik sohasida hozirgi vaqtda bir qator jihatlar ajralib turadi, onomasiologik jihat terminologiyada ular orasida alohida o'rin tutadi. Ingliz va o'zbek tillari diplomatiya sohasiga oid terminologiyani o'rganishning eng samarali usullari terminlarni modellashtirish shu jumladan, semantik, morfologik va sintaktik tahlillar orqali soha terminologiyasini tartibga solish imkonini beradi.

Diplomatiyaga oid terminlarning struktur-semantik jihatiga ko'ra termin sifatida shakllanishi, uning tarkibiy qismi bo'lmish metafora va metonimiya kabi ma'no ko'chish usullari asosida paydo bo'lgan atamalarni o'z ichiga oladi, masalan, pasportlarini berish, yoki tasdiqlash vakolatiga ega

Persona non grata -Persona non grata. A Latin phrase meaning “unwelcome person”. As a legal term, it refers to the practice of a state prohibiting a diplomat from entering the country as a diplomat, or censuring a diplomat already resident in the country for conduct unbecoming of the status of a diplomat. (Lotincha ibora “nomaqbul odam” degan ma'noni anglatadi. Yuridik atama sifatida bu davlatdagi diplomatning diplomat sifatida mamlakatga kirishini taqiqlash yoki mamlakatda yashovchi diplomatni diplomat maqomiga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlari uchun qo'llash amaliyotini anglatadi. Tadqiqot tahlillarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, diplomatiya sohasiga oid terminlarining metafora usuli asosida shakllanishi quyidagilarni nazarda tutadi: 1) maxsus tushuncha va umumiy ma'lum tushunchani taqqoslanishi; 2) ushbu ma'lum tushunchani ifodalaydigan so'z bilan maxsus tushunchani belgisi ko'zda tutilishi. Terminlarni chog'ishtirish yagona belgiga ko'ra va bir nechta tushunchalarning o'xshash tomonlari yoki jihatlar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin[3.1]. Darhaqiqat terminlarni chog'ishtirishda ham albatta bitta asosiy belgi muhim o'rin tutadi, bu belgiga ko'ra bu tovushlarni o'xshash yoki farqli

jihatlari ko'rsatib beriladi. Ularning asosiy jihatlarni ochib berishda bu tomonlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Izlanishlarimiz asosida, soha terminologiyasida ma'no ko'chishini asosan uch tasnifga ajratdik. Jumladan: a) nomning shakli va funksiyasining o'xshashligi bilan uzviy bog'liq ma'no ko'chishi. Masalan:

Smart power-aqli kuch, The flexible and combined use of hard power – military force or economic sanctions – and soft power – diplomatic and cultural influence – to overcome a foreign policy challenge (tashqi siyosat muammosini yengish uchun qattiq kuch – harbiy kuch yoki iqtisodiy sanksiyalar va yumshoq kuch-diplomatik va madaniy ta'sirdan moslashuvchan va birgalikda foydalanish. M.T) Metonimiya asosida "tildan tashqari voqelik obyektlarining nolisoniy xarakteristikalar va ular o'rtasidagi paradigmatic munosabatlarning ayrim tiplarini aks ettirish sababli paydo bo'lgan doimiy umum ma'lumotlar yotadi[5.100].

b) nomning xususiyatlari va sifati bilan bog'liq ma'no ko'chishi: AKKLAM ATSI YA. (lot. *acclamatio* - qichqiriq, hayqiriq) akklamatsiya diplomatik amaliyotda, shuningdek, ba'zi parlamentlar, konferensiya, syezd, forum va boshqalarda reglament bo'yicha ovoz berishni o'tkazmasdan qaror qabul qilish usulini anglatadi. Qaror ishtirokchilar reaksiyasi, ya'ni masalaga munosabatlari: xitoblar, qarsaklar, joylaridan aytilgan luqma va mulohazalardan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. O'tkazilayotgan tadbirlarning rasmiy bayonnoma (protokol)larida, odatda, "qaror akklamatsiya yo'li bilan qabul qilinadi", degan belgi qo'yiladi.

A.F.Juravlev terminlarga xos bo'lgan muntazam metonimik ko'chimlarni mutatsiyalarga, ya'ni muntazamligi, standartligi bilan xarakterlanadigan, ammo tilda uning sohibiga sezilmasdan yuzaga keladigan nominatsiyalarga ajratadi.[2.47]

c) nomning xususiyati bilan bog'liq ma'no ko'chishi: diplomatik audiyensiya. (lot. *audientia* - eshitish). Davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar vaziri yoki boshqa hukumat a'zosi tomonidan diplomatik vakilni qabul qilish. Mahalliy protokol qoidalari, diplomatik vakilning klassi (q.: Diplomatik klasslar va ranglar) va audiyensiya xarakteridan kelib chiqib, qabul tantanali yoki protokol marosimisiz o'tkazilishi mumkin. Davlat rahbariga o'z ishonch yorlig'ini topshirayotgan xorij diplomatik vakil qabuli tantanali ravishda o'tkaziladi.

d) insonning fiziologik, psixologik va uning ijtimoiy hayoti nomi bilan bog'liq ma'no ko'chishi:

Cunning-ayyorlik, showing inventiveness and skill In the 11th century during the Song Dynasty (960–1279), there were cunning ambassadors such as Shen Kuo and Su Song who achieved diplomatic success with the Liao Dynasty, the often hostile Khitan neighbor to the north. (Ixtirochilik va mahorat ko'rsatish. XI asrda Song sulolasi davrida (960–1279) Shen Kuo va Su Song kabi ayyor elchilar bo'lgan, ular shimoldagi ko'pincha dushman bo'lgan, xitan qo'shnisi bo'lgan Liao sulolasi bilan diplomatik muvaffaqiyatga erishgan).

Tadqiq qilinayotgan soha termin namunalari "terminning semantik strukturasida turli kategoriyalar umumlashuvchi polisemiyaning alohida ko'rinishi" mavjudligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.[4.6] Xususan, misollar tarkibida qayd etilgan ingliz tilidagi "age" termini, o'zbek tilidagi *diplomatik yosh* terminining ma'nosida metonimik uslubi bilan bog'liq ma'no ko'chishidir yoki "konsul" – "konsullik vakolati" tarzida ifodalangan. Bu termin ikkala ma'noda ham diplomatik munosabatlar terminologiyasi sifatida iste'molida keng qo'llaniladi.

Terminlarning mazkur jihatlarini hisobga olgan Y.I.Chupilina, “terminologik variantga xos boʻlgan kontekstual tiplar koʻp maʼnolilikni bartaraf qiladi va fikrning bir xilda tushunilishini taʼminlaydi”, - deb taʼkidlaydi[4.29].

Diplomatik terminlarning boshqa sohadagi terminlarga nisbatan umumiy oʻxshashligi mavjud, diplomatiyaga oid terminlar boshqa sohadagi terminlar kabi bir maʼnolik, oʻz sohasida qoʻllanilganda uslubiy neytral boʻlishga intiladi, maʼlum bir turdagi terminlar qatoriga kiritiladi hamda soʻz yasashining umumiy qonunlari boʻyicha hosil boʻladi. Lekin ushbu sohadagi terminlarga xos xususiyat bu oʻzlashgan xalqaro terminlarning koʻpligidan darak beradi. Avvalgi faslimizda taʼkidlanganidek lotin va fransuz tillari diplomatiyaning rivojlanish tarixida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ushbu tillardagi soʻzlar ingliz va oʻzbek tilida faqatgina diplomatiya va xalqaro huquq sohalarida qoʻllaniladi, lotin va fransuz tillarida esa bu soʻzlar maxsus boʻlmagan maʼnolarga ham ega boʻladi.

Attaché-“diplomatik vakolatxona ishchisining mansabi” fransuz tilida esa “biriktirilgan”, “hisobga kiritilgan” degan maʼnolarni ham beradi;

Demarche-“boshqa mamlakat hukumati oldidagi rasmiy murojaat, masalan, siyosatni qoʻllab-quvvatlash murojaati yoki mezbon davlatning siyosat yoki xatti-harakatlaridan norozi boʻlib murojaat qilish; fransuz tilida esa “yurish-turish”, “xatti-harakat” degan maʼnolarni anglatadi;

Advement-“diplomatik vakil sifatida maʼlum bir shaxsni tayinlashga davlat rahbarining roziligi”; fransuz tilida esa “rozilik”, “mamnuniyat” degan maʼnolarni ham anglatadi;

Concul- maʼlum bir davlatning boshqa bir davlat shahridagi diplomatik aloqalarni oʻrnatish va oʻz davlati fuqarolarining huquqlarini himoya qiluvchi masʼul shaxs;

Convention- xalqaro bitimlarning nomlanishi;

Accreditation-akkreditatsiya-diplomatik vakil tayinlash jarayoni va boshqa koʻplab misollar keltirish mumkin.

Diplomatik hujjatlardagi atamalar leksikasining yana bir oʻziga xos xususiyatlaridan biri bu umum qabul qilingan xalqaro lotin tilidagi iboralarining oʻzbek tilidagi tarjimasida assimilyatsiyaga uchraganligidir. Baʼzida oʻzbek tilidagi diplomatiyaga oid matnlarda oʻzbek harflari bilan “persona non grata”, “status kvo” va boshqa koʻplab lotin iboralarini uchratishingiz mumkin. Lekin koʻp xalqlarda lotin yozuvi oʻzgarmasdan hujjatga tushiriladi. Bu turdagi iboralarining koʻpligi diplomatiyada alohida eʼtiborga ega:

Ne varietur - (soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “oʻzgarmaydi”) diplomatiyaga oid matn rasmiylashtirilganda unga hech qanday toʻgʻrilash yoki oʻzgartirishlar kiritilmaydi, degan maʼnoni beradi;

Modus procedendi – (soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “xatti-harakat koʻrinishi”) diplomatiyaga maʼlum bir majburiyat qanday tartibda amalga oshirilishi lozimligini ifodalaydi;

Ad referendum-(soʻzma-soʻz tarjimada “qaratish yoki xabar qilishi kerak boʻlgan holat yoki narsa”) “yuqori instansiya maʼqullashi sharti bilan” degan maxsus maʼnoni beradi.

Baʼzi hollarda lotin iborolari bosh harflari bilan ifodalanadi. Masalan, a.i yoki p.i., yaʼni ad interim yoki par interim “muvaqqat” atamasi biror bir shaxsning vaqtincha mansab egallab turganini ifodalaydi.

Diplomatiyaga oid atamalar mustahkam va an'anaviy bo'lishiga qaramasdan, davlatlardagi siyosiy-ijtimoiy islohotlar va jahon hamjamiyatidagi o'zgarishlarning keng tarqalishi ushbu atamalarining o'zgarishi kengayishiga olib keldi. Jumladan XX asr boshi va o'rtalarigacha chop etilgan diplomatik izohli lug'atlarda "revanshizm", "genotsid", "konstruktiv" kabi terminlar diplomatik hujjatlarda ko'rsatilmagani sababli uchramaydi.

Diplomatik hujjatlar leksikasini umumadabiy leksika bilan qiyoslaganda, atamalar va umumadabiy so'zlar o'rtasida o'ziga xos sinonimik munosabatlar paydo bo'lishini kuzatish mumkin.

Sinonimlarning mavjud barcha tasniflari umuman olganda ikki asosiy guruhga, ya'ni ideografik va uslubiy sinonimlar guruhiga birlashadi. Lekin ba'zi sinonimlar, diplomatik hujjatlar tahlili jarayonida, ushbu ikki guruhga taalluqli bo'lmaydi:

Preambula -kirish yoki kirish qismi;

Ratification -tasdiqlash;

Denunciation-bekor qilish;

Authentic -asl, haqiqiy.

Shuni ta'kidlash joizki, bu so'zlar faqatgina xalqaro bitimlar va hujjatlarda uchraydi. Bunday turdagi so'zlarni boshqa nutq janrlarida qo'llanilishi, so'zning ma'lum bir janrga nomutanosib ekanligini ko'rsatish uchun tayin foydalanilgan uslubiy usuldir.

Bunday so'zlarni oddiy ideografik sinonimlar qatoriga kiritish mumkin emas va ular faqatgina diplomatik hujjatlarda qo'llaniladi.

Shu bilan birga bunday so'zlarni uslubiy sinonimlar tushunchasiga ham kiritib bo'lmaydi, chunki ular faqat nutq sohasida qo'llanibgina qolmay, balki diplomatiya va xalqaro huquq sohasidagi hujjatlarga birikkanligi bilan ajralib turadi. Shunday qilib ushbu turdagi so'zlarni funksional sinonimlar deb ham atasa bo'ladi. Diplomatik hujjatlar boshqa nutq bilan bog'liq aloqa sohalari kabi umumadabiyot tildan o'zlashgan, uslubiy jihatdan bo'yalgan va neytral ekvivalentlar (sinonimlar)ga ega bo'lgan leksika, so'z va iboralarni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu leksikada diplomatik hujjatlarning ahamiyatiga mos keluvchi umumiy kitobiy leksika tantanalilik va ahamiyatlilikni hosil qiluvchi vositalar sirasiga kiradi. Masalan, rasmiy axborotlarda biror bir davlat rahbari boshqa bir davlatga kelsa, uni "yuqori martabali mehmon", "yetib keldi" emas "tashrif buyurdi", "ketib qoldi" emas "jo'nab ketdi", u yashaydigan binoni "rezidensiya" yoki aniqrog'i "qarorgohi", rasmiy qabullarda "xotini bilan" emas balki "rafiqasi bilan" deb ta'kidlanadi.

Diplomatiya tilida boshqa turdagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlar ham uchrab turadi. Ular to'liq atamalar qatoriga kiritilmaydi va shu bilan birga umumadabiy tilda sinonimlarga ham ega bo'lmaydi. Ular diplomatiya va xalqaro huquqdagi tushunchalarni ifodalash uchun emas, balki xalqaro diplomatik muomalani ifodalash uchun qo'llaniladi. "Xalqaro xushmuomalalik to'liq atama xususiyatiga ega bo'lgan tushuncha bo'lib, u yuridik tomondan majburiy bo'lmagan, davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlarni o'rnatish uchun amaliy jihatdan qulay bo'lgan xalqaro diplomatiya amaliyotida qo'llaniluvchi qoidalar majmuasidir"[1.1]. Diplomatik xushmuomalalik turlari juda ko'p, serqirra va murakkab bo'lib, diplomatik munosabatlarning liboslar turi, ishonch yorliqlari taqdimoti, tashrif buyurish ketma-ketligi, qabul payti mehmonlarni joylarga o'tqazish kabi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro xushmuomalalikni nutq ko'rinishlari turli bo'lib, ular katta ahamiyatga ega.

Diplomatik hujjatlar rasmiyligi va ahamiyatliligi sababli unda badiiy ekspressiv elementlarni yo'q deb hisoblash noto'g'ri. Albatta shu elementlar ma'lum jihatdan rasmiy

hujjatlarga qo'yiladigan umumiy talablarga bo'ysunadi va chegaralanadi. Diplomatik hujjatlarda uchraydigan ekspressiv va obrazli xususiyatlar uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga barcha davlatlardagi diplomatik hujjatlarda qo'llaniluvchi "xalqaro" obrazlilik usullari kiradi. Xalqaro diplomatik amaliyotda davlatlar poytaxtlarni ko'chalar yoki binolar metonimiya yo'li bilan biror bir davlat yoki tashqi ishilar vazirligini ifodalash ushbu turdagi usullar qatoriga kiradi. Masalan, "[The White House](#)" AQSh hukumati yoki Prezidenti tushunchasini ifodalaydi, chunki ushbu binoda AQSh prezidenti qarorgohi mavjud; "Downing Street" Angliya bosh vaziri tushunchasini bildiradi, chunki mazkur ko'chada Angliya Bosh vaziri qarorgohi bor; "[Élysée Palace](#)" Fransiya hukumati tushunchasini ifodalab, u joyda Fransiya prezidentining qarorgohi joylashgan.

Ikkinchi guruhga ham xalqaro diplomatiyada qo'llaniluvchi obrazli ifodalarni kiritishimiz mumkin. Lekin birinchi guruhdan farqli o'laroq, ushbu guruhga taalluqli badiiy-ekspressiv so'zlar xalqaro siyosatdagi ma'lum hodisalar yoki doktrinalarni ifodalaydi. Misol uchun keltiradigan bo'lsak, "sovuq urush" ingliz tilida "cold war" iborasidagi "sovuq" so'zi yangi, ko'chma ma'noga ega bo'lib, "tajovuzlar" "g'arazli" degan tushunchani hosil qiladi.

Uchinchi guruhga kiruvchi badiiy ekspressiv til vositalari xalqaro diplomatik xarakterga ega emas va ular turg'un bo'lmaydi. Ular faqat biror-bir davlat tilidagi diplomatik hujjatlarga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Notalar va hukumat bayonoti kabi rasmiy hujjatlarda davlat yuzaga kelgan xalqaro vaziyatni tasdiqlabgina qolmay, boshqa vaziyatlar yuzasidan o'z munosabatini ham bildiradi. Ushbu munosabatni ifoda etish uchun turli xildagi umumadabiy ekspressiv ifodali vositalar qo'llaniladi.

Rasmiy ish yuritish uslubining bir turi bo'lgan diplomatik hujjatlar tilida quyidagi o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi:

1. Xalqaro atamalarining ustunlik qilishi. Ularning ko'pchiligini lotin va fransuz tilidan o'zlashgan atamalar tashkil etib, ularning ba'zilar assimilyatsiyaga uchramagan holda, hatto lotin harflari bilan yozib qo'llaniladi;

2. Umumadabiyot so'zlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan funksional sinonimlarning qo'llanilishi. Ular diplomatik hujjatlarga turg'un ma'noga ega bo'lishi va qo'llanilishi sohasida muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi;

3. Kitobiy uslubga ega bo'lgan umumadabiy til leksikasini tanlab olish, ushbu uslubiy bo'yoqlarga ega bo'lgan leksika diplomatik hujjatlarning tantanaligini va ahamiyatligini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi;

4. Xalqaro diplomatik xushmuomalalikni yoki axloq-odobni ifodalash uchun qo'llaniladigan leksikaning mavjudligi;

5. Iboralar qatoriga kirmaydigan, lekin turg'un so'z birikmalarining mavjudligi. Ular tayyor til vositalari sifatida qo'llanilib, frazeologik birliklar kabi mazmun va grammatik o'zgarishlarga uchramaydi;

6. Obrazli ifodalarning ba'zi elementlarini qo'llanilishi. Ularning bir qismi "xalqaro" so'zlar qatoriga kiritilib, ko'p davlatlarning diplomatik hujjatlaridagi uslubni ifodalab, boshqa jihatlaridan publitsistik uslubga yaqin bo'ladi.

Ma'lum turdagi xalqaro diplomatik hujjatlar pragmatik va kompozitsion tuzilishining qiyosiy tahlili xalqaro faoliyat hujjatlarining matnlari diplomatik ish faoliyatining muayyan qoidalari asosida tuzilishini ko'rsatadi. Ushbu matnlarni tashkil etuvchi alohida qismlarning o'zaro aloqasi va ketma-ketligi yaxlitlik tamoyiliga asoslanadi.

Bu jarayonda hujjatlarning shakli passiv omil bo'lmaydi, aksincha u hujjat mazmuni bilan chambarchas bog'liq, oxirgisining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Maxsus diskursning umumiy maqsadi orqali ulardagi atamalar mazmun mohiyatini aniqlab olsa bo'ladi. Atamalar maxsus leksikaning asosiy birliklari sifatida diskurs matnlarida bevosita maqsadda qo'llaniladi, shuning uchun ularning qo'llanilishi leksikografik qayd qilingan mazmunga mos kelishi talablariga javob berishi lozim.

Diplomatik leksikaning o'zaro tizimli munosabatlari asosan diplomatiya tilidagi tor ixtisosli diplomatik leksika bilan birga xalqaro huquq atamalari, siyosatga oid atamalar, iqtisodiyotga oid atamalar, harbiy atamalar va boshqa sohalarga oid atamalarning qo'llanilishi jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ba'zida maxsus leksikaning turli qatlamlaridagi o'zaro munosabat juda murakkab bo'lib, atamalar tizimidagi u yoki bu leksemalar guruhini qaysi sohaga mansubligini aniqlab olish murakkab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дипломатические словарь. Т1, Б., Государственное изд-во политической литературы. 1960.
2. Журавлев А.Ф. Технические возможности русского языка в области предметной номинации / Способы номинации в русском языке / Под ред. Д.Н. Шмелева. – М., 1982. – С.47.
3. Николаева О.А. Терминология текстильного материаловедения. Автореф. дисс.....канд. филол. наук. – Иваново, 2006.
4. Чупилина Е.И. Место термина в лексико-семантической системе языка // Вопросы терминологии и лингвистической, статистики. – Воронеж: 1972. – С.26.
5. Языковая номинация: виды наименований. кн. II. – М.: Наука, 1977. – С.100.